

UDC: 34(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-3719-6599

KONSTITUTSIYA – DAVLATNING ASOSIY QONUNI

Axmedshayeva Mavluda Axatovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Davlat va huquq nazariyasi” kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori,
e-mail: mavludaahmedshaeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada har bir davlatning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiya, uning yuridik va siyosiy mazmun mohiyati, huquq tizimida tutgan o'rni kabi masalalar bugungi zamонави huquq va milliy huquq voqeliklari asnosida ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida nafaqat milliy davlat-huquqiy rivojlanish yutuqlarini, balki jahondagi eng ilg'or davlatlar konstitutsiyaviy rivojlanishi natijalari, boy tajribasini ham o'zida ifoda etishi ta'kidlangan. Muallif konstitutsiya joriy qonunchilik rivoji uchun huquqiy zamin, asos sifatida xizmat qilishini konstitutsiyaviy normalar va ularning keyinchalik amaldagi qonunchilikda o'zining mufassal ifodasini topishini misollar asosida tavsiflashga uringan. Maqolada konstitutsiya nafaqat o'ta nufuzli siyosiy-huquqiy hujjatgina bo'lib qolmasdan, balki har bir xalqning asrlar osha rivojlanib kelgan davlat-huquqiy hamda ma'naviy tafakkurining mevasi ham ekanligi ta'kidlangan. Konstitutsiya, ayni paytda, jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlarni, yangi rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettirib borishi, shu munosabat bilan vaqt-i-vaqtida Asosiy Qonunga tegishli o'gartirishlar kiritib borish zarurligi asoslantirilgan. Maqolada jamiyat, davlat va aholi hayotida va huquqiy ongida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda, muallif tomonidan konstitutsiyaviy normalarni yangilash va takomillashtirish yuzasidan ayrim taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, konstitutsiyaviy norma, xorijiy tajriba, qonun, jamiyat, davlat, shaxs, konstitutsiyaviy rivojlanish, konstitutsiya va qonun ustuvorligi, konstitutsiyaviy islohot.

КОНСТИТУЦИЯ КАК ОСНОВНОЙ ЗАКОН ГОСУДАРСТВА

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна,
доктор юридических наук,
профессор кафедры “Теория государства и права”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье в контексте глобального и национального права рассмотрена Конституция как Основной закон каждого государства, сущность ее правового и политического содержания, ее место в правовой системе. Отмечается, что Конституция Республики Узбекистан отражает не только достижения национального государственно-правового развития, но и результаты конституционного развития передовых стран и их богатый опыт. Автор попытался на примерах раскрыть тот факт, что Конституция служит правовой основой развития действующего законодательства, конституционных норм и их последующего детального выражения в действующем законодательстве. В статье отмечается, что Конституция является не только весьма значительным политико-правовым документом, но и плодом многовекового правового мышления, государственно-правового и духовного мышления каждого народа. При этом Конституция исходит из того, что в ней отражаются коренные изменения, происходящие в обществе, новые этапы развития, и в связи с этим необходимо периодически вносить изменения в Конституцию. В статье с учетом существенных изменений в жизни и правосознании общества, государства и населения автор выдвигает некоторые предложения и рекомендации по обновлению и совершенствованию конституционных норм.

Ключевые слова: Конституция, конституционная норма, зарубежный опыт, право, общество, государство, личность, конституционное развитие, Конституция и правовое государство, конституционная реформа.

THE CONSTITUTION IS THE BASIC LAW OF THE STATE

Akhmedshaeva Mavluda Akhatovna,

Professor of the Theory and history of State and law department of
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. The article examines the essence of legal and political content of the Constitution, the Basic Law, its place in the legal system in the context of modern legislation and national law. It is noted that the Constitution of the Republic of Uzbekistan reflects not only the achievements of national state and legal development, but also the results of the constitutional development of developed countries and their advanced experience. The author tries to apply examples to reveal the fact that the Constitution serves as a legal basis for the development of current legislation, constitutional norms and their subsequent detailed expression in the current legislation. The article reminds that the Constitution is not only a significant political and legal act, but also the result of centuries-old legal and spiritual conception on legal state of every nation. At the same time, the Constitution proceeds from the fact that it reflects fundamental changes taking place in society, new stages of development, and in this regard, it is necessary to periodically amend the Constitution. Considering significant changes in the life and legal consciousness of society, the state and the population, the author puts forward some proposals and recommendations for updating and improving constitutional norms in this article.

Keywords: Constitution, constitutional norm, foreign experience, law, society, state, personality, constitutional development, Constitution and rule of law, constitutional reform.

Har bir davlat huquqiy tizimida asosiy qonun hisoblanadigan Konstitutsianing o'rni va roli o'ziga xos. Bunday maqom ushbu nufuzli hujjatda davlat va jamiyat qurilishining shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarining eng muhim bazaviy qoidalarini o'zida jamlagan normalardan iboratligidan kelib chiqib, shakllangan.

Shu o'rinda "konstitutsiya" so'zining kelib chiqishi va ma'nosiga biroz to'xtalish maqsadga muvofiq. Konstitutsiya so'zi lotincha "constitutio" iborasidan olingan bo'lib, "tizim", "ta'sis etish", "barpo etish" kabi ma'nolarni anglatadi. Holbuki, konstitutsiya atamasi doimo ham asosiy qonun ma'nosini anglatmagan. Buyuk Rim imperiyasi davrida ushbu atama imperatorlarning chiqargan turli oliy maqomdagi, ya'ni ediktlar, dekretlar, mandatlar va reskriptlar kabi hujjatlarini anglatgan. Keyinchalik esa ushbu so'z uzoq vaqt davomida "status" ma'nosiga yaqin mazmunda ishlatalgan. Akademik Akmal Xolmatovich Saidov o'zining fundamental mazmundagi "O'zbekiston Konstitutsiyasi tarixi" nomli asarida ko'rsatganidek, Rim imperatori Karakalla 212-yilda chiqargan ediktalaridan birini "status" deb atagan. Bugungi kunda konstitutsiya atamasi zamonaviy davlatlarning asosiy qonuni bo'lgan eng nufuzli yuridik-siyosiy hujjatni anglatadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'z mazmuni, tuzilishi hamda demokratik xarakteriga ko'ra jahon

konstitutsiyalari ichida o'zining munosib o'rniga ega. Asosiy Qonunimizning demokratik xarakteri ko'plab xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilgan. Jumladan, Fransiyadagi Sharq sivilizatsiyalari milliy universiteti professori, siyosatshunos Katrin Pujelning e'tiroficha, "Jahon hamjamiyatida O'zbekistonning roli va o'rni tobora oshib borayotgan sharoitlarda mamlakat Konstitutsiyasi ma'nnaviy taraqqiyotni ta'minlash ishida, asosiysi, mamlakatning izchil iqtisodiy rivojlanishi va xalq farovonligi oshishida real huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqillik qo'lga kiritilganidan keyin juda qisqa mudatlarda ishlab chiqilgani va qabul qilinganini alohida ta'kidlash joiz. Asosiy Qonunni ishlab chiqishda o'zbek davlatchiligi rivojlanishining boy tarixiy yo'li, konstitutsiyaviy qurilishning zamonaviy g'oyalari, universal demokratik tamoyillar hamda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or konstitutsiyaviy tajribasi hisobga olingan" [1].

O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqil davlatimizning asosiy qonuni sifatida muayyan rivojlanish bosqichlarini bosib o'tib kelmoqda. U mamlakatimizda o'tkazilgan va bugungi kunda olib borilayotgan chuqur islohotlarga, yangilanish jarayonlariga, chinakamadolatli demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarga huquqiy zamin, "yo'lchi yulduz" rolini bajarib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikka erishgan post-sotsialistik davlatlar qatorida O'zbekiston ham konstitutsiyani milliy davlatchilik tajribasi, milliy qadriyatlar hamda konstitutsiyaviy rivojlanish borasida jahonda erishilgan yutuqlarga tayangan holda ishlab chiqdi.

Shu bois postsotsialistik makondagi davlatlar konstitutsiyalari o'zida konstitutsiyaviy fikr va amaliyotning eng yaxshi yutuqlarini o'zida aks ettiradi. Binobarin, ushbu konstitutsiyalarda u yoki bu darajada konstitutsiyaviy rivojlanishning zamonaviy xususiyatlaridan bo'lgan demokratlashtirish va insonparvarlik, inson huquqlari kafolatlarining kuchayishi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, turli guruuhlar, qatlamlar va toifalar manfaatini uyg'unlashtirish mexanizmlarining rivojlanishi hamda davlat boshqaruvi organlarining samaradorligini oshirish kabi umumjahon qonuniyatlariga bo'y sunishini ko'rishimiz mumkin [2].

Xalqaro hamjamiatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasi o'zida xalqimizningadolatli davlat va adolatli boshqaruv, insonlar va hokimiyat o'rtasidagi maqbul munosabatlar haqidagi asriy orzu va intilishlarini ifoda etadi. Buyuk bobokalonlarimizdan Yusuf-Xos Hojjib Boloso'g'inning "Qutadg'u bilig" [3], Al-Forobiying "Fozil odamlar shahri" [4], buyuk Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" [5], Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" [6], Zaxiriddin Boburning "Boburnoma" [7] asarlarida ifodalangan orzu-intilishlar, g'oyalalar Asosiy Qonunimizda o'zining ifodasini topgan. Binobarin, Asosiy Qonun o'z normalarida jamiyatning iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va madaniy rivojining, xalq mentalitetining erishilgan darajasini o'zida aks ettirish barobarida xalqning ma'naviy-huquqiy rivojlanishi ifodasi sifatida maydonga chiqadi.

Zotan bu nufuzli hujjat bir paytning o'zida, bir tomon dan, muayyan jamiyat, xalq va davlatning shu paytgacha erishgan marralarini, ikkinchi tomon dan esa erishishga intilayotgan "dovon"larni, rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi.

Shu bois konstitutsiyaviy normalar alohida maqomga ega bo'lib, ushbu normalar yuqori darajada umumlashganlik hamda o'z mazmuniga ko'ra ta'sis etish, tartibga solish va muhofaza etish xususiyatiga ega. Shu tariqa konstitutsiyaviy normalar joriy qonunchilikning rivojlanishiga turtki vazifasini bajaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 37-moddasida "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

sini bajaradi. Konstitutsiyaning huquq tizimi rivojidagi o'rniga alohida e'tibor qaratish zarur.

Chunki Asosiy Qonun o'zida jamiyat, davlat va shaxsga oid eng muhim, eng umumiy munosabatlarni o'zida mujassam etadi. Konstitutsiyadan joy olgan nufuzli normalar keyinchalik qonunlarda va qonunosti hujjatlarida o'zining ancha kengaytirilgan, bat afsil ifodasini topadi. Shu bois konstitutsiyaviy normalar alohida maqomga ega bo'lib, ushbu normalar yuqori darajada umumlashganlik hamda o'z mazmuniga ko'ra ta'sis etish, tartibga solish va muhofaza etish xususiyatiga ega. Shu tariqa konstitutsiyaviy normalar joriy qonunchilikning rivojlanishiga turtki vazifasini bajaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 37-moddasida "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tarribidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollar dan tashqari majburiy mehnat taqiplanadi", deb mustahkamlab qo'yilgan [8]. Ushbu konstitutsiyaviy norma mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida [9], O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" [10], "Mehnat muhofazasi haqida" [11], "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi [12] kabi qonunlarda, Hukumat qarorlarida, masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 349-son qarori [13] va ko'plab qonunosti hujjatlarida o'zining aniq, mufassal ifodasini topgan.

Yuqoridagi misoldan ko'rinish turibdiki, Asosiy Qonunning har bir moddasida asosida, ushbu modda belgilangan doirada va mazkur normani hayotga tatbiq etish uchun keyinchalik tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilinadi va joriy qonunchilik rivojiana boradi.

Konstitutsiya mamlakatda olib borilayotgan barcha yangilanish, rivojlanish jarayonlari ga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yil ligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida ta'kidlaganidek, "Hayotimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuq va marralarimizning mus-

tahkam huquqiy poydevori bo'lib kelayotganini hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz” [14].

Konstitutsiyaning huquq tizimida alohida, o'ziga xos maqomga ega bo'lishini belgilaydigan omillardan biri sifatida mamlakatda Konstitutsiya va qonunning ustunligini ko'rsatish lozim. Konstitutsiyamizning 15-moddasida mustahkamlab qo'yilgan [15]. Unga ko'ra, mamlakatda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi so'zsiz tan olinadi. Xo'sh buning ma'nosi nimada ko'rindi? Konstitutsiyaning norma va qoidalariga bironta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat zid kelishi mumkin emas. Shuningdek, Asosiy Qonunning bironta ham qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariaga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Ayni paytda jamiyat, davlat va xalq hayotida yuz berayotgan tub o'zgarishlar davlatning Asosiy Qonunida o'z ifodasini topib bormog'i kerak. Darhaqiqat, “O'tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy manzarasi butunlay o'zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatlari hamkorlik davlatimiz siyosatining asosiy yo'naliishiga aylandi” [14].

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga jamiyat, xalq va davlat rivojining bugungi kuni darajasini, yangi shakllangan siyosiy-huquqiy qadriyatlarga hamohang bo'lgan o'zgartirishlarni kiritish zarurati paydo bo'ldi. Konstitutsiyanı yangilash o'ta murakkab huquqiy-siyosiy jarayon ekanligi ayondir. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, “Albatta, Konstitutsiyanı yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda biz yetti marta emas, yetmish marta o'ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslahatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur” [14].

Aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida nafaqat xalqning ruhini, uning asriy intilishlarini, balki umumiylar tarzda konstitutsiyaviy rivojlanishning yuqori darajasi ni aks ettirgan, chunki ushbu hujjat zamonaviy davlat-huquqiy rivojlanishning umuminsoniy, umumdemokratik qadriyatlariga tayanadi. Bino-barin Asosiy Qonunimiz rivojlangan demokratik davlatlar konstitutsiyalarining xalq hokimi-yatchiligi, demokratik saylovlar, davlat hokimi-

yatining bo'linishi, xalqaro huquq normalarining milliy huquqdan ustuvorligi, davlat organlarining xalq oldida javobgan va hisobdor ekanligi, inson huquqlari ustuvorligi kabi eng ilg'or g'oya va muhim qoidalarini o'zida ifoda etgan [1].

Shunday qilib, Asosiy Qonun sifatidagi Konstitutsiya o'zida nafaqat muayyan davlat va jamiyatning o'z rivojida erishgan darajasini, balki kelejakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muhim vazifalarni ham aks ettiradi.

Ayni paytda Konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda biz yetti marta emas, yetmish marta o'ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslahatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur [14].

Shu o'rinda amaldagi Konstitutsiyaga qaysi masalalar bo'yicha o'zgartirishlar kiritilishi kutilmoqda? – degan savol tug'ilishi tabiiy. O'zbekiston Prezidenti Konstitutsiyaga kiritilishi zarur bo'lgan masalalar doirasini aytib o'tdi. Rivojlanishimizning hozirgi bosqichida Konstitutsiyamizga avvalgi “davlat – jamiyat – inson” prinsipi o'rniga “inson – jamiyat – davlat” deb o'zgartirish, iqtisodiy islohotlarning inson manfaatiga xizmat qilishini; “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan g'oyat doirasida fuqarolik jamiyatni institutlarning o'rni va maqomini; oila institutini rivojlantirish, ezgu insoniy qadriyatlarni kelgusi avlod-larga bezavol yetkazish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash; yoshlarning huquq va manfaatlarini to'la ta'minlash maqsadida yoshlarni sohasidagi davlat siyosati, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlarini konstitutsiyaviy darajada aks etirish; “Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyilini; inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalari; ekologiyaga oid maxsus boblar kiritish hamda ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish Asosiy Qonunimizda o'zining konstitutsiyaviy ifodasini topishi va tegishli norma va boblarda mustahkamlanishi kerak.

Ayni chog'da mamlakatimizning qonun ustuvorligi, huquq ustunligi “rule of law” borasida erishgan muayyan yutuqlari ham Asosiy Qonunimizda mustahkamlab qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Binobarin, taniqli huquq nazariyotchisi S.S. Aleksevning ta'biricha, huquq ustunligi g'oyasi – “o'zining mohiyatiga ko'ra huquqning hokimiyat, davlatga nisbatan so'zsiz ustuvorligini anglatadi” [16].

Huquq ustunligi o'z ichiga, davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalariga huquq va qonun nuqtayi nazaridan qarash va hal etishni, umuminsoniy axloqiy-huquqiy qadriyatlar va davlat faoliyatini oqilona uyg'unlashtirishni, davlat va jamoat organlarining har qanday qarorlarini g'oyaviy-huquqiy jihatdan asoslashni hamda har qanday davlatda insonlarning huquqlarini ta'minlashning ishonchli vositalari mexanizmi mavjudligini o'z ichiga oladi va taqozo etadi [17].

Bundan tashqari, keyingi yillarda mamlakatimizda jamiyatning demokratik asoslarini mustahkamlash va inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, davlat hokimiyati va davlat organlari faoliyatini tobora xalqqa yaqinlashtirish borasida amalga oshirilayotganligi, jumladan, davlat organlari faoliyatini baholashning asosiy mezoni qilib, aholining turmush muammolarini real hal etishi qilib belgilanganligi e'tiborga loyiq.

Aholining kundalik turmush muammolarini hal etishda Davlat rahbarining, Bosh vazir, vaziliklar va boshqa davlat organlarining virtual qa-

bulxonasi, joylardagi xalq qabulxonalari, bugungi kunda aholi bilan muloqotda bo'lish va uning hayotiy masalalarini hal etishning yangi samarali shakli, xalq hokimiyatchiligining yangi formati sifatida maydonga chiqmoqda. Aholi bilan davlat organlarining orasida yaqinlashuv jarayonlari – nazarimizda keyingi yillarning muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Yana shu holat aniqki, demokratik rivojlanish yo'lida mamlakatimizda amalga oshiriladigan ishlarning ko'lami katta. Davlat rahbari aytganidek, “Taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topayotgan,adolatli va xalqparvar davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, yangi konstitutsiyaviy makon hamda yanada mustahkam qonunchilik bazasi kerak bo'lishini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Shu ma'noda, Asosiy Qonunimizni jamiyatdagi bugungi real voqelikka, shiddatli islohotlarimiz mantig'iga moslashtirish, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish muhim vazifaga aylanmoqda”.

Xulosa o'rnila ta'kidlash kerakki, mustaqil davlatchilik ifodasi bo'lgan Konstitutsiya jamiyat va davlatimizning demokratik rivojlanish yo'lida sa'y-harakatlari, Taraqqiyot strategiyasida ko'rsatilgan rejalarining amalga oshishiga nafaqat huquqiy zamin, balki dasturilamal rolini o'tashi shubhasiz.

REFERENCES

1. Saidov A. O'zbekiston Konstitutsiyasi tarixi [History of the Constitution of Uzbekistan]. Tashkent, Tasvir Publ. house, 2018, p. 15.
2. Xabrieva T.Y. Teoriya sovremennoego osnovnogo zakona i rossiyskaya Konstitutsiya [The theory of the modern basic law and the Russian Constitution]. Jurnal rossiyskogo prava – Journal of Russian Law, 2008, no. 12, pp. 15–23.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig [Good luck]. Available at: <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriysi/ozbek-mumtoz-sheriysi/yusuf-xos-hojib/>.
4. Al-Forobi. Fozil odamlar shahri [A city of noble people]. Available at: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzları-abu-nasr-forobiy-873-950/>.
5. Amir Temur. Temur tuzuklari [Temur's rules]. Available at: <http://www.temurtuzuklari.uz/uz/>.
6. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Available at: n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/.
7. Zaxiriddin Bobur. Boburnoma. Available at: [https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html/](https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html).
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://www.lex.uz/acts/20596/>.
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi [Labor Code of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://lex.uz/docs/142859/>.

10. O'zbekiston Respublikasining aholi bandligi to'g'risida Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan on Employment]. Available at: <https://lex.uz/docs/5055690/>.
11. O'zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida Qonuni (yangi tahriri) [Law of the Republic of Uzbekistan on labor protection (new edition)]. Available at: <https://lex.uz/docs/3031427/>.
12. O'zbekiston Respublikasining Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan on the Rights of Persons with Disabilities]. Available at: <https://lex.uz/docs/5049511/>.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi 349-sod "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 10, 2018 No 349 "On additional measures to eliminate forced labor in the Republic of Uzbekistan"]. Available at: <https://lex.uz/docs/3730223/>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga qilgan tabrigei [Congratulations of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the people of Uzbekistan on the occasion of the 29th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4815/>.
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://www.lex.uz/acts/20596/>.
16. Alekseev S.S. Vosxojdenie k pravu. Poiski i resheniya [Rise to the right. Searches and solutions]. Moscow, Norma, 2001, p. 485.
17. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, 2018, TSUL, p. 214.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

I QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.